

**2026-2027-O'QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI MAKTABLARNING
8-SINFIGA QABUL IMTIHONI UCHUN BIOLOGIYA FANIDAN TEST
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

2026-2027-O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI MAKTABLARNING 8-SINFIGA QABUL IMTIHONI UCHUN BIOLOGIYA FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarning 8-sinfiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha hujjat topshirgan nomzodlarning biologiya fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni belgilaydi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – nomzod o‘quvchilarining biologiya fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini ta’lim olgan o‘quv dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi maktablarining 8-sinfiga qabul qilish bo‘yicha qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydagi “Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga o‘quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 214-son qarori.

2. Tabiiy fandan umumiy o‘rta ta’limning 5-7-sinflari uchun amaldagi o‘quv dasturi.

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi maktablarning 8-sinfiga o‘qishga qabul jarayonida o‘quvchilarning biologiya fanini bilish darajasini aniqlash uchun jami **10 ta** yopiq test topshirig‘i taqdim etiladi. Topshiriqlarni bajarish uchun **20 daqiqa** vaqt belgilangan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiluvchi (Y1)*), *moslashtirishni talab qiluvchi (Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlaridan (Y3)* foydalaniladi.

Test topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko‘nikma va

kompetensiyalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda aks etgan:

T/r	Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
I. Tirik organizmlarning xilma-xilligi			
1	Tirik organizmlarning xilma-xilligi	Tirik organizmlarning asosiy guruhlarini va ularning umumiy belgilarini bilish.	1
II. Tiriklikning molekula va hujayra darajasi			
2	Tiriklikning molekula va hujayra darajasi	Hujayra organoidlari va hujayra tarkibidagi moddalarni ularning funksiyalari bilan bog'lash hamda biologik vaziyat asosida hujayra faoliyatini izohlash.	1
III. Organ, organlar sistemasi			
3	Tayanch va harakatlanish sistemasi	Tirik organizmlarda ayirish va harakatlanish tizimlari faoliyatini ularning tuzilishi bilan bog'lash, biologik vaziyat asosida bu tizimlarning funksiyalarini qo'llash.	1
4	Ovqat hazm qilish, ayirish va oziqlanish	Ovqat hazm qilish jarayonining bosqichlarini aniqlash va turli hayvonlarda hazm qilish sistemasidagi o'xshashlik va farqlarni tushuntirish va umumlashtira olish.	1
5	Nafas va qon aylanish, nerv sistemasi	Nafas olish va qon aylanish, nerv sistemalarining asosiy qismlari va funksiyalarini bilish, biologik atamalarni to'g'ri qo'llash biologik vaziyat asosida faoliyati haqida xulosa qilish.	1
IV. Ko'payish va rivojlanish			
6	Ko'payish va rivojlanish	Organizmlarning ko'payishi va rivojlanish jarayonlarini taqqoslash hamda berilgan biologik vaziyat asosida rivojlanish bosqichlarini tushuntirish.	1
V. Ratsional ovqatlanish			
7	Ratsional ovqatlanish	Ratsional ovqatlanish talablari asosida ovqat ratsionlarini taqqoslash, ularning ovqat hazm qilish jarayoniga ta'sirini baholash va sog'lom ovqatlanish bo'yicha asosli xulosa chiqarish.	1

VI. Kasalliklar va himoya mexanizmlari			
8	Kasalliklar va himoya mexanizmlari	Yuqumli kasalliklarning tarqalishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, organizmning himoya mexanizmlarining kasalliklarning oldini olishdagi rolini baholash va asosli xulosa chiqarish.	1
VII. Moslanish xillari			
9	Moslanish xillari	Tirik organizmlarning yashash muhitiga moslanishlarini tahlil qilish, ularni taqqoslash va moslanishning muhitga moslashuvdagi ahamiyatini tushuntirish.	1
VIII. Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera			
10	Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera	Populyatsiya, ekosistema va biosfera darajasida oziq zanjiri va oziq to'ri orqali energiya hamda moddalar oqimini tahlil qilish, tashqi omillarning ta'sirini baholash va ekologik muvozanat haqida asosli xulosa chiqarish.	1
Jami			10 ta

IV. Kognitiv ko'nikmalar va baholash mezonlari

Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini, bajarishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan. Ya'ni, osonroq va asosiy bilimlarni tekshiruvchi topshiriqlar nisbatan kamroq ball bilan, yuqoriroq darajadagi qo'llash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishni talab qiluvchi topshiriqlar esa yuqoriroq ball bilan baholanadi.

Test topshiriqlarining kognitiv ko'nikmalar va baholash mezonlari bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)	Baholash mezonlari (ball)
Bilish	Reproduktiv darajadagi topshiriqlar o'quvchilardan fanga oid bilimlarni qayta ishlamasdan qo'llashni talab etadi. Ushbu	2	1.1

	topshiriqlar qonuniyatlar, jarayonlar, tushunchalar va atamalarning mohiyatini bilish, ularni yodda saqlash va tanib olish, shuningdek odatiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini aniqlashga qaratilgan.		
Qo'llash	Produktiv darajadagi topshiriqlar o'quvchilardan o'rganilgan qonuniyatlar, qoidalar va tushunchalarni tanish vaziyatlarda ravishda qo'llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchilar berilgan biologik ma'lumotlar asosida jarayon va hodisalarning borishini izohlaydi hamda tegishli qonuniyat yoki tushunchani to'g'ridan-to'g'ri qo'llaydi.	2	1.1
	Produktiv darajadagi biologik topshiriqlar o'quvchilardan o'zlashtirilgan bilim va qonuniyatlarni bir nechta bosqichdan iborat hamda qisman noodatiy vaziyatlarda ongli ravishda qo'llashni talab etadi. Bunda o'quvchilar biologik vaziyatni tahlil qiladi, mos yechimni tanlaydi va tushunchalar hamda qonuniyatlarni mantiqiy ketma-ketlikda qo'llaydi	3	2.1
Mulohaza qilish	Intellectual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, va ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo'llab, umumlashtirishni talab qiladi	3	2.1

Test topshiriqlari umumiy **17 ball** bilan baholanadi. Test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi, ikki va undan ortiq tanlangan javoblar uchun ball berilmaydi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. “Tabiiy fan” 6-sinf darsligi Jasvinder K. Randhawa va Dr Natasha Mehta – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.
2. Tabiiy fanlar 6-sinf mashq daftari, Jasvinder K. Randhawa va Dr Natasha Mehta, Teo Tang Vi. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.
3. Biologiya. 7-sinf: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7- sinfi uchun darslik, K. Safarov, M.Umaraliyeva, Z.Tillayeva, I. Abduraxmonova, U.Raxmatov, S.Haytbayeva, M.Bo‘ronboyeva 1- nashri. Toshkent: “Respublika ta’lim markazi”, 2022.